

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim

2025/2026- o'quv yili boshiga


- I. Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari
- II. Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar
- III. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar
- IV. Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V. Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)
- VI. Oliy ta'lim ko'rsatkichlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari

O'zbekiston Respublikasida **oliy ta'lim** uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi hisoblanadi va respublika qonunchiligiga muvofiq umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim negizida oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni


(tegishli o'quv yili boshiga)



O'zbekiston Respublikasida 2025/2026- o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni **215 tani** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yili boshiga nisbatan **7 taga**, ya'ni **3,2 % ga** kamaygan.

Faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni

(tegishli o'quv yili boshiga)



2025/2026- o'quv yili boshiga respublikada **97 ta** nodavlat oliy ta'lim tashkiloti faoliyat yuritgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan ularning soni **2 taga**, ya'ni **2,0 % ga** qisqargan.

Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi

(2025/2026- o'quv yili boshiga)

| | Oliy ta'lim tashkilotlari soni | | shundan: nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari | |
|---------------------------------|--------------------------------|-----------------------------|---|-----------------------------|
| | Jami (birlik) | umumiy soniga nisbatan % da | Jami (birlik) | umumiy soniga nisbatan % da |
| O'zbekiston Respublikasi | 215 | 100 | 97 | 100 |
| <i>hududlar:</i> | | | | |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 11 | 5,1 | 2 | 2,1 |
| Andijon viloyati | 9 | 4,2 | 3 | 3,1 |
| Buxoro viloyati | 11 | 5,1 | 7 | 7,2 |
| Jizzax viloyati | 5 | 2,3 | 2 | 2,1 |
| Qashqadaryo viloyati | 9 | 4,2 | 6 | 6,2 |
| Navoiy viloyati | 5 | 2,3 | 3 | 3,1 |
| Namangan viloyati | 6 | 2,8 | 2 | 2,1 |
| Samarqand viloyati | 14 | 6,5 | - | - |
| Surxondaryo viloyati | 8 | 3,7 | 3 | 3,1 |
| Sirdaryo viloyati | 3 | 1,4 | - | - |
| Toshkent viloyati | 19 | 8,8 | 7 | 7,2 |
| Farg'ona viloyati | 9 | 4,2 | 3 | 3,1 |
| Xorazm viloyati | 8 | 3,7 | 3 | 3,1 |
| Toshkent shahri | 98 | 45,6 | 56 | 57,7 |

2025/2026- o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining eng ko'p soni Toshkent shahri (**98 ta**), Toshkent (**19 ta**) va Samarqand (**14 ta**) viloyatlarida qayd etilgan, eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**3 ta**), Navoiy va Jizzax (har bir **hududda 5 tadan**) viloyatlarida kuzatilgan.

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga kelsak, ularning eng ko'p soni Toshkent shahri (**56 ta**), Buxoro va Toshkent (har bir hududda **7 tadan**) viloyatlarida qayd etilgan, eng past ko'rsatkichlar esa Jizzax, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (har bir hududda **2 tadan**) kuzatilgan, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida esa ular mavjud emas.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni](#)


[Faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari soni](#)

[Faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni](#)

II. Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar

O'zbekiston Respublikasida 2025/2026- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni **409,7 ming nafarni** tashkil etdi. 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan mazkur ko'rsatkich **28,0 ming nafarga**, yoki **7,3 % ga** oshdi.

Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni (tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o'quv yilida qabul qilingan qizlar soni **226,8 ming nafarni**, o'g'il bolalar soni esa **182,9 ming nafarni** tashkil etgan. Bunda qizlarning ulushi qabul qilingan talabalar umumiy sonining **55,4 % ini**, o'g'il bolalar ulushi esa **44,6 % ini** tashkil etgan. Ta'kidlash joizki, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab qabul qilingan qizlar soni o'g'il bolalar sonidan yuqori bo'lib kelmoqda. Oldingi o'quv yiliga nisbatan qabul qilingan qizlar soni **30,1 ming nafarga**, yoki **15,3 % ga oshgan** bo'lsa, o'g'il bolalar soni **2,1 ming nafarga**, yoki **1,1 % ga** kamaygan.

2025/2026- o'quv yili boshiga bakalavriat ta'lim dasturlariga **372,9 ming nafar** qabul qilingan bo'lib, bu 2024/2025- o'quv yili boshiga nisbatan **12,8 ming nafarga**, yoki **3,6 % ga** ko'p bo'lgan.

Ko'rib chiqilayotgan davrda eng yuqori o'sish magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha kuzatilgan. Magistraturaga qabul qilinganlar soni 2024/2025- o'quv yilidagi **21,6 ming nafardan** 2025/2026- o'quv yilida **36,8 ming nafarga** yetdi, ya'ni **15,2 ming nafarga**, yoki **70,4 % ga** oshdi. Magistraturaning umumiy qabuldagi ulushi **9,0 % ga** yetgan bo'lsa, bir yil avval bu ko'rsatkich **5,7 % ni** tashkil etgan.

**Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar
sonining hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

| | Jami qabul qilingan talabalar soni | jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da | qabul qilingan talabalar sonidan: | | jami qabul qilingan talabalar sonidan: | |
|---------------------------------|------------------------------------|---|-----------------------------------|----------------|--|----------------------|
| | | | qiz bolalar | o'g'il bolalar | bakalavriyatga qabul | magistraturaga qabul |
| O'zbekiston Respublikasi | 409,7 | 100 | 226,8 | 182,9 | 372,9 | 36,8 |
| <i>hududlar:</i> | | | | | | |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 14,8 | 3,6 | 7,4 | 7,4 | 13,3 | 1,5 |
| Andijon viloyati | 16,0 | 3,9 | 10,3 | 5,7 | 14,7 | 1,3 |
| Buxoro viloyati | 46,6 | 11,4 | 30,6 | 16,0 | 42,1 | 4,5 |
| Jizzax viloyati | 6,3 | 1,5 | 3,8 | 2,5 | 5,8 | 0,5 |
| Qashqadaryo viloyati | 18,5 | 4,5 | 11,2 | 7,3 | 16,0 | 2,5 |
| Navoiy viloyati | 9,2 | 2,2 | 5,5 | 3,7 | 8,5 | 0,7 |
| Namangan viloyati | 18,5 | 4,5 | 12,2 | 6,3 | 17,2 | 1,3 |
| Samarqand viloyati | 22,9 | 5,6 | 12,9 | 10,0 | 21,3 | 1,6 |
| Surxondaryo viloyati | 14,8 | 3,6 | 8,3 | 6,5 | 13,6 | 1,2 |
| Sirdaryo viloyati | 5,2 | 1,3 | 3,3 | 1,9 | 4,9 | 0,3 |
| Toshkent viloyati | 19,5 | 4,8 | 9,4 | 10,1 | 17,9 | 1,6 |
| Farg'ona viloyati | 26,9 | 6,6 | 16,4 | 10,5 | 25,6 | 1,3 |
| Xorazm viloyati | 16,5 | 4,0 | 10,9 | 5,6 | 15,1 | 1,4 |
| Toshkent shahri | 174,0 | 42,5 | 84,6 | 89,4 | 156,9 | 17,1 |

2025/2026- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar sonining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahri (**174,0 ming**), Buxoro (**46,6 ming**) va Farg'ona (**26,9 ming**) viloyatlarida kuzatilgan, eng past ko'rsatkichlar esa Sirdaryo (**5,2 ming**), Jizzax (**6,3 ming**) va Navoiy (**9,2 ming**) viloyatlarida qayd etilgan.

Gender kesimida hududlarning aksariyatida qabul qilingan qizlar soni o'g'il bolalar sonidan yuqori bo'lgan. Qabul qilingan talabalar tarkibida qizlarning eng yuqori ulushi Xorazm (**66,1 %**), Namangan (**65,9 %**) va Buxoro (**65,7 %**) viloyatlarida kuzatilgan. Shu bilan birga, o'g'il bolalar ulushi Toshkent shahri (**51,4 %**) va Toshkent viloyatida (**51,8 %**) qizlar ulushidan yuqori bo'lgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida esa qizlar va o'g'il bolalar nisbati teng bo'lib, **har biri 50,0 % ni** tashkil etgan.

Oliy ta'lim darajalari kesimida bakalavriyatga qabul qilingan talabalar sonining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahri (**156,9 ming**), Buxoro (**42,1 ming**) va Farg'ona (**25,6 ming**) viloyatlarida qayd etilgan.

Magistratura dasturlari bo'yicha ham Toshkent shahri yetakchilik qilgan. Bu yerda **17,1 ming nafar** talaba qabul qilingan bo'lib, bu magistraturaga qabul qilinganlarning qariyb yarmini tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda Buxoro (**4,5 ming**) va Qashqadaryo (**2,5 ming**) viloyatlari turgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriyat yo'nalishlariga qabul qilingan talabalar soni](#)


[Oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura mutaxassislariga qabul qilingan talabalar soni](#)

III. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar

2025/2026- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni **1 535,0 ming nafarni** tashkil etgan. 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan mazkur ko'rsatkich **102,2 ming nafarga**, yoki **7,1 % ga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o'quv yilida qizlar soni **782,9 ming nafarni**, o'g'il bolalar soni esa **752,1 ming nafarni** tashkil etgan. Shunday qilib, talabalar umumiy sonida qizlarning ulushi **51,0 % ni**, o'g'il bolalarning ulushi esa **49,0 % ni** tashkil etgan. Ta'kidlash joizki, so'nggi ikki o'quv yilida qizlar soni o'g'il bolalar sonidan yuqori bo'lib, bu oliy ta'limda qizlarning ishtiroki kuchayib borayotganini ko'rsatadi. 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan qizlar soni **58,2 ming nafarga**, yoki **8,0 % ga**, o'g'il bolalar soni esa **44,0 ming nafarga**, yoki **6,2 % ga** oshgan.

2025/2026- o'quv yili boshiga bakalavriat talabalari soni **1 478,7 ming nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **85,7 ming nafarga**, yoki **6,2 % ga** ko'paygan.

Magistratura talabalari soni ham sezilarli darajada oshgan. 2025/2026- o'quv yilida ular **56,3 ming nafarni** tashkil etib, 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **16,5 ming nafarga**, yoki **41,5 % ga** ko'paygan.

**Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar
sonining hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

| | Jami talabalar soni | jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da | tahsil olayotgan talabalar sonidan: | | jami talabalar sonidan: | |
|---------------------------------|---------------------|---|-------------------------------------|----------------|-----------------------------|------------------------------|
| | | | qiz bolalar | o'g'il bolalar | bakalavriatda o'qiyotganlar | magistraturada o'qiyotganlar |
| O'zbekiston Respublikasi | 1 535,0 | 100 | 782,9 | 752,1 | 1 478,7 | 56,3 |
| <i>hududlar:</i> | | | | | | |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 73,7 | 4,8 | 39,9 | 33,8 | 71,4 | 2,3 |
| Andijon viloyati | 65,7 | 4,3 | 37,3 | 28,4 | 63,6 | 2,1 |
| Buxoro viloyati | 117,7 | 7,7 | 65,3 | 52,4 | 111,8 | 5,9 |
| Jizzax viloyati | 32,4 | 2,1 | 18,4 | 14,0 | 31,6 | 0,8 |
| Qashqadaryo viloyati | 111,6 | 7,3 | 60,4 | 51,2 | 107,6 | 4,0 |
| Navoiy viloyati | 42,5 | 2,8 | 25,3 | 17,2 | 41,5 | 1,0 |
| Namangan viloyati | 52,5 | 3,4 | 27,7 | 24,8 | 50,8 | 1,7 |
| Samarqand viloyati | 93,9 | 6,1 | 48,8 | 45,1 | 91,1 | 2,8 |
| Surxondaryo viloyati | 76,2 | 5,0 | 44,3 | 31,9 | 74,1 | 2,1 |
| Sirdaryo viloyati | 23,2 | 1,5 | 13,7 | 9,5 | 22,7 | 0,5 |
| Toshkent viloyati | 101,5 | 6,6 | 38,2 | 63,3 | 99,4 | 2,1 |
| Farg'ona viloyati | 98,9 | 6,4 | 56,4 | 42,5 | 96,7 | 2,2 |
| Xorazm viloyati | 65,9 | 4,3 | 42,8 | 23,1 | 63,6 | 2,3 |
| Toshkent shahri | 579,3 | 37,7 | 264,4 | 314,9 | 552,8 | 26,5 |

2025/2026- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlari talabalari sonining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahri (**579,3 ming**), Buxoro (**117,7 ming**) va Qashqadaryo (**111,6 ming**) viloyatlarida kuzatilgan. Talabalar sonining eng past ko'rsatkichlari esa Sirdaryo (**23,2 ming**), Jizzax (**32,4 ming**) va Navoiy (**42,5 ming**) viloyatlarida qayd etilgan.

Gender kesimida hududlarning aksariyatida qizlar soni o'g'il bolalar sonidan yuqori bo'lgan. Talabalar tarkibida qizlarning eng yuqori ulushi Xorazm (**64,9 %**), Navoiy (**59,5 %**) va Sirdaryo (**59,1 %**) viloyatlarida kuzatilgan. Shu bilan birga, o'g'il bolalar ulushi Toshkent shahri (**54,4 %**) va Toshkent viloyatida (**62,4 %**) qizlar ulushidan yuqori bo'lgan.

Oliy ta'lim darajalari kesimida bakalavriat talabalari sonining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahri (**552,8 ming**), Buxoro (**111,8 ming**) va Qashqadaryo (**107,6 ming**) viloyatlarida qayd etilgan. Magistratura dasturlari bo'yicha ham Toshkent shahri (**26,5 ming**), Buxoro (**5,9 ming**) va Qashqadaryo (**4,0 ming**) viloyatlari yetakchilik qilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(jami\)](#)

[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(qiz bolalar\)](#)

[Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

[Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni \(jami\)](#)


[Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni](#)

[Kechki ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni](#)
[Sirtqi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar soni](#)
[Har 10 000 aholiga nisbatan oliy ta'lim tashkilotlarining talabalari soni](#)

IV. Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

2025- yilda oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari soni **225,9 ming nafarni** tashkil etgan. 2024- yilga nisbatan mazkur ko'rsatkich **14,7 ming nafarga**, yoki **7,0 % ga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



2025-yilda bitiruvchilar orasida qizlar soni **112,5 ming nafarni**, o'g'il bolalar soni esa **113,4 ming nafarni** tashkil etgan. Shunday qilib, bitiruvchilar umumiy sonida qizlarning ulushi **49,8 % ni**, o'g'il bolalarning ulushi esa **50,2 % ni** tashkil etgan. Ta'kidlash joizki, o'g'il bolalar soni qizlar sonidan biroz yuqori bo'lgan. 2024-yilga nisbatan qizlar soni **10,6 ming nafarga**, yoki **10,4 % ga**, o'g'il bolalar soni esa **4,1 ming nafarga**, yoki **3,8 % ga** oshgan.

2025-yilda bakalavriat bitiruvchilari soni **214,7 ming nafarni** tashkil etgan va 2024-yilga nisbatan **10,6 ming nafarga**, yoki **5,2 % ga** ko'paygan.

Magistratura bitiruvchilari soni ham oshgan. 2025-yilda ular **11,2 ming nafarni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **4,1 ming nafarga**, yoki **57,7 % ga** oshgan.

**Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari
sonining hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2025-yil uchun, ming kishi)

| | Jami bitiruvchilar soni | jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da | bitiruvchilar sonidan: | | jami bitiruvchilar sonidan: | |
|---------------------------------|-------------------------|---|------------------------|----------------|-----------------------------|----------------------------|
| | | | qiz bolalar | o'g'il bolalar | bakalavriatni tugatganlar | magistraturani tugatganlar |
| O'zbekiston Respublikasi | 225,9 | 100 | 112,5 | 113,4 | 214,7 | 11,2 |
| <i>hududlar:</i> | | | | | | |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 12,6 | 5,6 | 6,9 | 5,7 | 12,2 | 0,4 |
| Andijon viloyati | 10,3 | 4,6 | 5,1 | 5,2 | 10,1 | 0,2 |
| Buxoro viloyati | 9,2 | 4,1 | 5,8 | 3,4 | 8,4 | 0,8 |
| Jizzax viloyati | 8,8 | 3,9 | 5,0 | 3,8 | 8,6 | 0,2 |
| Qashqadaryo viloyati | 15,1 | 6,7 | 7,0 | 8,1 | 14,9 | 0,2 |
| Navoiy viloyati | 8,5 | 3,8 | 5,0 | 3,5 | 8,3 | 0,2 |
| Namangan viloyati | 11,4 | 5,0 | 5,8 | 5,6 | 10,9 | 0,5 |
| Samarqand viloyati | 20,2 | 8,9 | 10,0 | 10,2 | 19,4 | 0,8 |
| Surxondaryo viloyati | 14,3 | 6,3 | 7,7 | 6,6 | 13,9 | 0,4 |
| Sirdaryo viloyati | 5,5 | 2,4 | 2,9 | 2,6 | 5,3 | 0,2 |
| Toshkent viloyati | 11,2 | 5,0 | 4,9 | 6,3 | 11,1 | 0,1 |
| Farg'ona viloyati | 16,0 | 7,1 | 8,6 | 7,4 | 15,5 | 0,5 |
| Xorazm viloyati | 8,6 | 3,8 | 5,7 | 2,9 | 8,3 | 0,3 |
| Toshkent shahri | 74,2 | 32,8 | 32,1 | 42,1 | 67,8 | 6,4 |

2025-yilda oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari sonining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahri (**74,2 ming**), Samarqand (**20,2 ming**) va Farg'ona (**16,0 ming**) viloyatlarida kuzatilgan. Bitiruvchilar sonining eng past ko'rsatkichlari esa Sirdaryo (**5,5 ming**), Navoiy (**8,5 ming**) va Xorazm (**8,6 ming**) viloyatlarida qayd etilgan.

Gender kesimida hududlarning aksariyatida qizlar soni o'g'il bolalar sonidan yuqori bo'lgan. Bitiruvchilar tarkibida qizlarning eng yuqori ulushi Xorazm (**66,3 %**), Buxoro (**63,0 %**) va Navoiy (**58,8 %**) viloyatlarida kuzatilgan. Shu bilan birga, Toshkent shahri (**56,7 %**), Toshkent (**56,3 %**), Qashqadaryo (**53,6 %**), Samarqand va Andijon (har bir hududda **50,5 %**) viloyatlarida o'g'il bolalar ulushi qizlar ulushidan yuqori bo'lgan.

Oliy ta'lim darajalari kesimida bakalvriat bitiruvchilari sonining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahri (**67,8 ming**), Samarqand (**19,4 ming**) va Farg'ona (**15,5 ming**) viloyatlarida qayd etilgan. Magistratura dasturlari bo'yicha ham Toshkent shahri yetakchilik qilgan. Bu yerda **6,4 ming nafar** bitiruvchi tayyorlangan bo'lib, bu magistratura bitiruvchilarining **57,1 % ini** tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda Buxoro va Samarqand viloyatlari (har bir hududda **0,8 ming nafardan**) turgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(jami\)](#)


[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

V. Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)

2025/2026- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlaridagi professor-o'qituvchi xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni **54,9 ming nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **5,3 ming nafarga**, yoki **10,7 % ga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o'quv yilida professor-o'qituvchi xodimlari orasida ayollar soni **24,8 ming nafarni (45,2 %)**, erkaklar soni esa **30,1 ming nafarni (54,8 %)** tashkil etgan. 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan ayollar soni **1,9 ming nafarga**, yoki **8,3 % ga**, erkaklar soni esa **3,4 ming nafarga**, yoki **12,7 % ga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz) sonining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

| | Jami professor-o'qituvchi xodimlar soni | jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da | ulardan: | | umumiy sonidan, % da | |
|---------------------------------|---|---|-------------|-------------|----------------------|-------------|
| | | | ayollar | erkaklar | ayollar | erkaklar |
| O'zbekiston Respublikasi | 54,9 | 100 | 24,8 | 30,1 | 45,2 | 54,8 |
| <i>hududlar:</i> | | | | | | |
| Qoraqalpog'iston Resp. | 2,8 | 5,1 | 1,4 | 1,4 | 50,0 | 50,0 |
| Andijon viloyati | 3,1 | 5,6 | 1,3 | 1,8 | 41,9 | 58,1 |
| Buxoro viloyati | 4,1 | 7,5 | 1,7 | 2,4 | 41,5 | 58,5 |
| Jizzax viloyati | 2,3 | 4,2 | 1,0 | 1,3 | 43,5 | 56,5 |
| Qashqadaryo viloyati | 3,0 | 5,5 | 1,2 | 1,8 | 40,0 | 60,0 |
| Navoiy viloyati | 1,4 | 2,6 | 0,7 | 0,7 | 50,0 | 50,0 |
| Namangan viloyati | 2,0 | 3,6 | 0,6 | 1,4 | 30,0 | 70,0 |
| Samarqand viloyati | 3,6 | 6,6 | 1,5 | 2,1 | 41,7 | 58,3 |
| Surxondaryo viloyati | 2,0 | 3,6 | 0,9 | 1,1 | 45,0 | 55,0 |
| Sirdaryo viloyati | 0,8 | 1,5 | 0,3 | 0,5 | 37,5 | 62,5 |
| Toshkent viloyati | 2,6 | 4,7 | 1,1 | 1,5 | 42,3 | 57,7 |
| Farg'ona viloyati | 3,7 | 6,7 | 1,4 | 2,3 | 37,8 | 62,2 |
| Xorazm viloyati | 2,3 | 4,2 | 1,2 | 1,1 | 52,2 | 47,8 |
| Toshkent shahri | 21,2 | 38,6 | 10,5 | 10,7 | 49,5 | 50,5 |

2025/2026- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlaridagi professor-o'qituvchi xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahri (**21,2 ming**), Buxoro (**4,1 ming**), Farg'ona (**3,7 ming**) va Samarqand (**3,6 ming nafar**) viloyatlarida kuzatilgan. O'qituvchilar sonining eng past ko'rsatkichlari esa Sirdaryo (**0,8 ming**), Navoiy (**1,4 ming**), Namangan va Surxondaryo (har bir hududda **2,0 ming nafardan**) viloyatlarida qayd etilgan.

Gender kesimida hududlarning aksariyatida professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz) orasida erkaklar soni ayollar sonidan yuqori bo'lgan. Erkaklarning eng yuqori ulushi Namangan (**70,0 %**), Sirdaryo (**62,5 %**), Farg'ona (**62,2 %**) va Qashqadaryo (**60,0 %**) viloyatlarida kuzatilgan.

Shu bilan birga, ayollar ulushi faqat Xorazm viloyatida (**52,2 %**) erkaklar ulushidan yuqori bo'lgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatida esa ayollar va erkaklar nisbati teng bo'lib, **har biri 50,0 % ni** tashkil etgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari \(o'rindoshlarsiz\) soni](#)

VI. Oliy ta'lim ko'rsatkichlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq, fanlarning dasturlari va o'quv rejalarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari;
- oliy ta'limni normativ-huquqiy va ilmiy-uslubiy ta'minoti bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari, shuningdek, ularga bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

Oliy ta'lim **bakalavriat** ta'lim yo'nalishlari va **magistratura** mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistika hisoboti – **1 oliy ta'lim shakli** "Oliy ta'lim tashkilotining hisoboti" ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur statistik hisobot mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan taqdim etiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining statistik hisoboti qabul qilingan va tahsil olayotgan talabalar, bitiruvchilar, professor-o'qituvchi xodimlar soni, ta'lim shakllari va turlari, shuningdek, oliy ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilingan va tahsil olayotgan talabalar, professor-o'qituvchi xodimlar soni va moddiy-texnika bazasi kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Ta'lim tashkilotlariga qabul qilish – ushbu o'quv yilida o'qishga qabul qilinganlarning sonini ko'rsatadi. Qabul qilinganlar soniga ikkinchi yilga qoldirilganlar va avval o'qiganlar orasidan qaytib kelganlar kiritilmaydi.

Ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni – oliy ta'lim tashkilotlarida o'qiyotgan va o'quv yili boshida ro'yxatda turganlar soni.

Ta'lim tashkilotlarini bitirganlar – ta'lim tashkilotlarida o'quv kursini to'liq tugatgan va tegishli ma'lumot (mutaxassislik)ga ega bo'lgan shaxslar soni.

Professor-o'qituvchi xodimlari soni – oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga ta'lim berish bilan shug'ullanuvchi, shuningdek, o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar soni.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-O 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
*Ijtimoiy soha statistikasi
boshqarmasi*

Manzil: 100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: (71) 203-80-00 (ichki raqam: 1305)

